

Dunyoda koronavirus tarqalishiga doir vaziyat qanday?

Dunyoda COVID-19 tarqalish sur'atlari pasaygani yo'q. Bir kecha kunduz davomida 260 ming nafardan ziyod kasallanganlar qayd etilgan. Yangi kasallanish holatlari sonining ko'pligi Hindiston, AQSH va Braziliyada qayd etilgan. Bu davlatlardagi ko'rsatgichlarning hammasi bir kecha kunduz davomida jami dunyo aholisi kasallanganlarning 63,8%ni tashkil etadi.

Statistika

"Worldometers" dan olingan ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilning 9-avgust holatida jahon miqyosida kasallanganlar soni 19 million 803 ming nafarni tashkil etdi.

Kasallik eng ko'p tarqalgan mamlakatlar: AQSH (5 mln. 149,7 ming), Braziliya (3 mln. 13,3 ming) va Hindiston (2 mln. 152 ming).

Joriy yilning 9-avgust holatiga ko'ra, dunyo miqyosida COVID-19 dan sog'ayganlar soni 12 720 225 nafar kishini tashkil etdi. Bu jami kasallanganlarning 64,2 % ni tashkil etadi.

MDH mamlakatlari

Rossiyada jami kasallanganlar soni 822 347 kishini, sog'ayganlar 690 207 kishini tashkil etdi. 14 854 nafar bemor vafot etgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari

Ozog'istonda jami kasallanganlar 97 829, sog'ayganlar 71 609 nafar kishini tashkil etdi, 1 058 nafar bemor vafot etgan.

Qirg'izistonda jami kasallanganlar soni 39 571 nafar, sog'ayganlar - 31 062 nafar kishiga yetgan. 1 459 nafar bemor vafot etgan.

Qirg'iziston shifoxonalari mingdan ziyod o'rinlar yaratiladi, deb xabar berdi mamlakat rahbari S.Jeenbekov "Birinchi radio" radiostansiyasiga bergan intervyusida. Uning so'zlariga ko'ra, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan koronavirus epidemiyasining ikkinchi to'lqiniga tayyor turish uchun hukumat barcha choralarni ko'rmoqda, xususan, 9 ta hududiy shifoxonalarda kapital ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga S.Jeenbekov mamlakatda davlat-xususiy sheriklik asosida 100 million dollarlik shifoxona qurilishiga hissa qo'shishga tayyor turgan sarmoyadorlar ham borligini qayd etdi.

Tojikistonda jami kasallanganlar soni - 7 706, sog'ayganlar 6 484 nafar kishini tashkil etdi. 62 nafar bemor vafot etgan.

"Sputnik" ning Tojikiston statistika agentligiga tayangan holda bergan xabariga ko'ra, 2020-yilning birinchi yarmida mamlakatda chakana va ulgurji tovar aylanma hajmi o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, 5,2 foizga kamaygan.

Turkmanistonda bironta ham koronavirus bilan kasallanish holatlari qayd etilmagan.

Mamlakat prezidenti G.Berdimuhamedov JST bosh direktori T.Gebreyesus va tashilotning Yevropa mintaqaviy byurosi direktori X.Klyuge bilan uchrashuv o'tkazgan.

X.Klyuge o'zining "Facebook" sahifasida ma'lum qilishicha, muzokaralar davomida JST Turkmanistonda zotiljam bilan kasallangan bemorlar sonining oshganidan jiddiy xavotirda ekanini bildirgan.

Dunyo miqyosidagi so'nggi tendensiyalar

Fransiya va Germaniya JST ni isloh qilishga doir muzokaralarni yakunlashdi.

Tashkilotni isloh qilish to'g'risidagi muzokaralar 4 oy oldin boshlangan edi. O'shandan buyon G7 mamlakatlari sog'liqni saqlash vazirliklari ishtirokida 20 ta telekonferensiya o'tkazildi, shuningdek, diplomatlar va boshqa rasmiy vakillarning o'nlab uchrashuvlari tashkillashtirildi.

"Reuters" agentligining xabar berishicha, Germaniya va Fransiya sog'liqni saqlash vazirliklarida AQSHning JSTni tark etish to'g'risidagi niyati e'lon qilganidan so'ng AQSH bilan muzokara olib borishiga qarshi chiqqanlar.

Ayni damda Italiyada JST ni isloh qilish to'g'risidagi hujjat ustida ish olib borilayotgani haqida izoh berilgan. Agentlik Yevropa yetakchi mamlakatlarining muzokaralarni to'xtatish to'g'risidagi qarori AQSH prezidenti D.Tramp tomonidan salbiy qabul qilinishi mumkin, deb qayd etadi.

“Sky News”ning ma’lum qilishicha, Buyuk Britaniyada “British Airways” aviakompaniyasining 25% xodimlari koronavirus bo’yicha e’lon qilingan cheklovlar tufayli yuzaga kelgan inqiroz sababli qisqarishi mumkin. Jami 42 ming nafar xodimdan 10 mingdan ortig’i ishdan bo’shatilishi rejalashtirilgan. Ayni damda ularning 6 ming nafari ish beruvchi bilan kelishuvga erishganidan so’ng o’z ixtiyori bilan ishdan bo’shashga rozi bo’lgan.

Vaksina va dori ishlab chiqish bo’yicha chora-tadbirlar, tadqiqotlar

“Tvbrics.com” ning xabar berishicha, Braziliya prezidenti J.Bolsonaru koronavirusga qarshi vaktsina ishlab chiqarishga mablag’ ajratish haqidagi farmonga imzo chekkan. Ajratiladigan mablag’ 356 mln. dollarga teng. Qayd etilishicha, Braziliyaning “Fiocruz” instituti 100 mln. doza vaktsina ishlab chiqarishi lozim. Xabarda shuningdek, bu boradagi ishlar Oksford universiteti olimlari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi ham aytib o’tiladi. Ajratilgan mablag’ning 240 mln. dollari tadqiqotlarni moliyalashtirish uchun sarflanadi. Shuningdek, 18 mln. dollar texnologiyalarga va 100 mln. dollar yuqoridagi institut quvvatlarini ishga solgan holda vaktsinani ishlab chiqarishga sarflanadi.

COVID-19 oqibatlarini kamaytirish va karantindan chiqish choralari

AQSH prezidenti D.Tramp ishsizlikka pul to’lashni joriy yil oxiriga qadar cho’zdi. “Bloomberg” nashrning ma’lum qilishicha, ishsizlarga har hafta to’lanadigan to’lov miqdori 400 dollarni tashkil etadi. Ayni damda ushbu mablag’ning chorak qismi uchun hukumat mas’uldir. Qayd etilishicha, ushbu qaror Kongressni chetlab o’tgan holda Oq uy rahbari tomonidan qabul qilingan.

Xususan, nashrning ma’lum qilishicha, ilgari prezident administratsiyasi va kongress to’lov miqdori haqida bir to’xtamga kela olmaganlar. Kongressdagi ko’pchilikni tashkil etgan demokratlar nafaqa miqdorini ilgari miqdorda, ya’ni haftasiga 600 dollarligicha qoldirishni talab qilishgan.

“INTERFAX” ning ma’lum qilishicha, Germaniya-Rossiya tashqi savdo palatasi Rossiya va Germaniya tashqi ishlar vazirlari S.Lavrov va X.Maasni 11-avgust kuni tashkil etiladigan muzokaralarni muhokama qilishga chaqirdi. Unda ikki mamlakat o’rtasidagi aviaxabarlarni yangilash masalasi ko’rib chiqiladi. Palata bayonotida qayd etilishicha, ikki mamlakat o’rtasidagi aviaxabarlarni to’xtatish RF va GFR ning investitsiyaviy loyihalari uchun jiddiy oqibatlarga olib keladi.

Ayni damda ko’pgina olimlar karantin jarayonida fuqarolarning o’z vaqtida malakali tibbiy xizmatdan foydalana olmasliklari xavfi xususida fikr bildirmoqda.

Masalan, 8-avgust kuni Buyuk Britaniyada hukumat ma’lumotlari chop etilgan. Unga ko’ra, mamlakatda koronavirusdan halok bo’lgan uchta bemorning ikkitasi karantin oqibatida vafot etgan.

“Daily Mail” bergan ma’lumotlarga ko’ra, bu raqamlar (SAGE) mamlakat favqulodda vaziyatlar bo’yicha hukumat ilmiy konsultativ guruhi tomonidan Sog’liqni saqlash vazirligi, Milliy statistika boshqarmasi va IIV hisob-kitoblari asosida taqdim etilgan.

Unda qayd etilishicha, mamlakatda aholiga zarur tibbiy yordam ko’rsatilmasligi natijasida 23-martdan 1-mayga qadar 16 ming nafar kishi vafot etgan. Shu vaqtga qadar Britaniyada koronavirus tufayli umumiy hisobda 25 ming nafar britaniyalik vafot etgan. Vafot etgan bemordan 6 ming nafari virus yuqtirib olishdan qo’rqib, shoshilinch yordam ko’rsatish bo’limlariga murojaat qilishmagan. Yana 10 ming nafari shifoxonadan erta ruxsat berilishi va tibbiy yordamning foydalanishning imkoni yo’qligi tufayli vafot etgan. Mutaxassislarning fikriga ko’ra, Buyuk Britaniyada mavjud cheklovlar tufayli yana 26 ming nafar kishi vafot etishi mumkin. Bu tibbiy yordamni uzoq kutishi oqibatida ham sodir bo’lishi mumkin. Bu borada qirolikning xirurglar kolleji prezidenti, professor N.Mortensen sog’liqni saqlash tizimi faqat koronavirus uchun xizmat qilmasligini qayd etdi.

“RIA Novosti”ning ma’lum qilishicha, Ukraina hukumati koronavirus bilan kasallanish holatlarining ortganligi sababli 9-avgust soat 8.00 dan 30-avgust 8.00 gacha Qrim bilan chegaradagi nazorat-o’tkazish punktlari faoliyatini to’xtatish to’g’risida qaror qabul qildi.